



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida yong‘in xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 30-sentabrdagi “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining “Yong‘in xavfsizligi qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 20-oktabrdagi 649-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda - Vazirlik) markaziy apparat binosida yong‘in xavfsizligi uchun:

texnologik uskunalarini, shamollatish va isitish tizimlari, yerga ulash moslamalarini, aloqa va xabar berish vositalarini, yong‘inga qarshi texnik himoya vositalarini soz holda saqlash va foydalanish uchun mas’ul shaxs etib Xo‘jalik bo‘limi boshlig‘i A.Shernazarov;

ichki yong‘inga qarshi suv ta’mnoti tizimining holatini nazorat qilish Xo‘jalik bo‘limi bosh mutaxassisini S.Maxmayev mas’ul shaxslar etib belgilansin.

2. Xo‘jalik bo‘limi (A.Shernazarov) texnologik uskunalarini, shamollatish va isitish tizimlari, yerga ulash moslamalarini, aloqa va xabar berish vositalarini, yong‘inga qarshi texnik himoya vositalarini soz holda saqlanishiva foydalanishini ta’minlansin.

3. Xo‘jalik bo‘limi (S.Maxmayev)ga ixtiyoriy shakldagi dalolatnomani tuzgan holda berkitish armaturalarini ko‘zdan kechirish, yong‘inni o‘chirish yenglari o‘ramalarini quritish (zarur hollarda) va qayta o‘ralishi ta’minlansin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar direktorlari 10 kun muddat ichida binolarda yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida texnologik uskunalarini, shamollatish va isitish tizimlari, yerga ulash moslamalarini, aloqa va xabar berish vositalarini, yong‘inga qarshi texnik himoya vositalarini soz holda saqlash va foydalanish hamda ichki yong‘inga qarshi suv ta’mnoti tizimining holatini nazorat qilish uchun mas’ul shaxslarni tayinlash bo‘yicha zaruriy choralar ko‘rsin.

5. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni boshqarma va bo‘limlar, hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalarga yetkazsin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rribosari T.Komilov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil “29”- avgust,
273 -son